Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: 9.433
ORCID:0009-0009-5109-199C

SURXON VOHASINING IJTIMOIY HAYOTIDA BOLALARNI SOG'LOMLASHTIRISH OROMGOHLARI VA SANATORIYALARINING O'RNI

Tilovov Qorjov Bekbayevich
Termiz davlat pedagogika instituti
"Tarix" kafedrasi o'qituvchi
E-pochta: tqorjov@77gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida mavjud sog'lomlashtirish oromgohlarining davlat tomonidan qayta tashkili etilishi va rivojlanish tarixiga bag'ishlanib, oromgohlarning jamiyat ijtimoiy hayotida tutgan o'rni va roli tarixiy tahlil etilgan. Tadqiqotning maqsadi Surxondaryoda tashkil etilgan sog'lomlashtirilgan oromgohlarning faoliyati va aholiga xizmat ko'rsatish dinamikasini shakllantirb, nafaqat viloyat balki, respublikaning qolgan mintaqalaridan jalb qilingan aholisiga ko'rsatilgan xizmatlarni yoritish va tahlil etib, taqoslash orqali rivojlanishini ochib berishdan iborat. Maqolani yoritish jarayonida tarixiy tahlil, tarixiy ketma-ketlik va tarixiy xolislik metodlaridan foydalanildi. Shuningdek oromgohlarning islohotlar davrida rivojlantirish masalalari hudud kesimida jadval qilinib soni va nomi ularning qayta tiklanishi to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Keltirilgan ma'lumotlar natijasida Surxondaryoda sog'lomlashtirish oromgohlari (sanatoriya, bolalar mavsumiy dam olish lagerlari, istirohat va ko'ngil ochish bog'lari, anhor, ko'l, suv ombori va katta ariq yoqalari, o'quvchilarning dam olish oromgohlari sport oromgohlari, mahalla va uylar oldidagi bolalarning o'yin maydonlari)ning mustaqillik yillarida qayta tashkil etilganligi va aholini xordiq chiqarishi uchun munosib sharoitlar yaratilganligi arxiv va ilmiy manbalar asosida isbotlangan.

Kalit so'zlar: Sog'lom avlod, sog'lomlashtirish, bolalar oromgohi, sanatoriyalar, davlat dasturi.

МЕСТО ДЕТСКИХ ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ ЛАГЕРЕЙ И САНАТОРИЕВ В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ СУРХАНСКОГО ОАЗИСА

Аннотация: В статье рассматривается история государственного переустройства и развития действующих оздоровительных лагерей в Сурхандарьинской области в годы независимости, дается исторический анализ места и роли лагерей в социальной жизни общества. Целью исследования является выявление развития деятельности и услуг, предоставляемых населению оздоровительных лагерей, созданных в Сурхандарье, путем анализа и сравнения услуг, предоставляемых не только населению области, но и населению других регионов республики. При написании статьи использовались методы исторического анализа, исторической последовательности и исторической объективности. Также приведена таблица развития лагерей в период реформ по регионам, дана информация об их количестве и наименованиях, а также об их восстановлении. В результате представленных сведений на основе архивных и научных источников доказано, что в годы независимости здравницы Сурхандарьи (санатории, детские сезонные оздоровительные лагеря, парки и парки культуры

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

и отдыха, берега рек, озер, водохранилищ и крупных арыков, студенческие оздоровительные лагеря, спортивные лагеря, детские игровые площадки перед кварталами и домами) были реорганизованы и созданы благоприятные условия для отдыха населения.

Ключевые слова: Здоровое поколение, укрепление здоровья, детский лагерь, санатории, государственная программа.

THE PLACE OF CHILDREN'S HEALTH CAMPS AND SANATORIUMS IN THE SOCIAL LIFE OF THE SURKHAN OASIS

Abstract: This article is devoted to the history of the state reorganization and development of existing health camps in Surkhandarya region during the years of independence, and a historical analysis of the place and role of the camps in the social life of society is provided. The purpose of the study is to reveal the development of the health camps established in Surkhandarya by forming the dynamics of their activities and services to the population, and to shed light on, analyze and compare the services provided not only to the population of the region, but also to the population of other regions of the republic. In the process of covering the article, the methods of historical analysis, historical sequence and historical objectivity were used. Also, the issues of the development of the camps during the reform period are tabulated by region, and information is provided on their number and name, their restoration. As a result of the presented information, it is proven based on archival and scientific sources that health resorts in Surkhandarya (sanatoriums, children's seasonal recreation camps, parks and amusement parks, banks of rivers, lakes, reservoirs and large ditches, student recreation camps, sports camps, children's playgrounds in front of neighborhoods and houses) were reorganized during the years of independence and suitable conditions were created for the population to relax.

Key words: Healthy generation, health, children's camp, sanatoriums, state program.

KIRISH. Bolalarni sog'lomlashtirish oromgohlari haqida gap ketar ekan, ushbu maskan haqida qisqacha to'xtalsak. Bolalarning dam olishi va sog'lomlashtirilishini tashkil etish maqsadida tuzilgan bo'lib quydagilarni o'z ichiga oladi.

Jumladan:

bolalarning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashish;

bolalarni tarixiy va milliy an'analar hamda ma'naviy qadriyatlar bilan tanishtirish, ularda mafkuraviy immunitetni hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarni shakllantirishga ko'maklashish;

bolalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda intellektual rivojlangan va salohiyatli yoshlarni tarbiyalashga hissa qo'shish.

Oromgoh o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- bolalarning har tomonlama kamol topishi, xususan, ularning qiziqishlari, iqtidorining rivojlanishi, mustaqil bilim olishi va ijodiy mehnat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi;
- bolalarning ehtiyojlariga muvofiq ularning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan to'garaklar tashkil etadi, qo'shimcha ta'lim xizmatlarini ko'rsatadi;
- bolalar bilan san'at va hunarmandchilik yo'nalishlari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazadi;
- qobiliyatli va iqtidorli bolalarni aniqlaydi, ularning mahoratini rivojlantirishga qaratilgan musobaqalar, texnik, badiiy

ijodiyot, o‘lkashunoslik, ekologiya va boshqa yo‘nalishlardagi tadbirlarni tashkil etadi;

- ta’lim tashkilotlari bilan yaqin hamkorlik qiladi, ularning mutaxassislari ishtirokida seminarlar, treninglar, davra suhbatlari, master klasslar o‘tkazadi;
- dam olish va sog‘lomlashtirishga qabul qilingan bolalarning hisobini yuritadi;

O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimidagi bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlari va sanatoriylarni ta’mirlash, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda yangi statsionar oromgohlar va sanatoriylarni qurish bugungi davrda dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Mamlakatimizda sog‘lomlashtirish turizmi faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga turli yengilliklar va imtiyozlar berilmoqda. Bu esa, sohada sog‘lomlashtirish muassasalarini barpo etish, mavjudlarini jahon talablari darajasiga moslashtirish imkonini bermoqda. Bugungi kunda sog‘lom-lashtirish xizmatlariga bo‘lgan talab taqdim etilayotgan taklif nuqtasidan yuqori darajaga ko‘tarilmoqda. Shularni e’tiborga olgan holda tadqiqotimizda ilmiy yangilik sifatida taklif etilayotgan model asosida sohada yangi tizimni amalga oshirish, sog‘lomlashtirish turizmi klasterlarini shakllantirish va shu klasterlarda faoliyat ko‘rsatuvchi subyektlar innovatsion faolligini rivojlantiruvchi kross-innovatsiya asosidagi modellardan foydalanish zaruratini tug‘dirmoqda.

2023-yil 17-noyabrida Prezidentingiz raisligida o‘tkazilgan “Surxondaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan yig‘ilish”da ham viloyatda Sog‘lomlashtirish turizm sohasini rivojlantirish maqsadida sanatoriya va oromgohlar sonini oshirish va ularning moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish masalalarini o‘rtaga tashlangan[1][2]. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholiga sanatoriylarda davolanish uchun yo‘llanmalar berish sohasiga axborot-texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida” 2021-yil 19-oktabrdagi 693-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalarning dam olishlarini tizimli tashkil etish va sog‘lomlashtirish ishlarini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 18-noyabrdagi PQ-427-son qarori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlarida dam oladigan bolalar qamrovini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 29-maydagi PQ-199-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalarning dam olishlarini tizimli tashkil etish va sog‘lomlashtirish ishlarini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilanishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2023-yil 14-iyundagi PF-95-son farmonlari sohani rivojlantirishda huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Maqolada ilmiy metodik yondoshuvlardan nazariy mavxumlikdan aniqlikka tomon, empirik kuzatish, qiyoslash, tahlil usullaridan foydalanib, Surxondaryo viloyati sog‘lomlashtirish oromgohlari va sanatoriylarni mustaqillik yillarida qayta tiklanishi va rivojlanish tarixini ochib berish va muammo va yechimlariga taklif berishdan iborat.

NATIJALAR. Jahon hamjamiyat sharoitida sog‘lom turmush tarzining ahamiyati tobora yuksalib borishi, jamiyat uchun zaruriy bo‘lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda jismoniy va ma’naviy sog‘lomlashtirish tadbirlarini amaliyotga

[2] https://minenergy.uz/uz/news/view/3380

tadbiq qilish jarayonini samarali tashkillashtirish dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda.

Globallashuv davrida inson sog‘liqni saqlash va harakat faoliyatini shakllantirish, uning asosiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash, ularning aksariyati, zararli odatlardan voz kechish, to‘g‘ri ovqatlanish hamda nafaqat jismoniy, balki psixologik salomatligini ham muhofaza qilishga imkon beruvchi turli xil sog‘lomlashtirish maskanlarining turlari ko‘paymoqda.

Surxondaryo to‘g‘risida so‘zlaydigan bo‘lsak, Respublikaning janubi-sharqida, Surxon-Sherobod vodiysida joylashgan. Viloyat nomi vohadan oqib o‘tuvchi “Surxon” (fors-tojik: “qizil”) daryosi nomidan kelib chiqqan. Janubidan Amudaryo bo‘ylab Afg‘oniston, shimoliy, shimoli-sharq va sharqdan Tojikiston, janubi-g‘arbdan Turkmaniston, shimoli-g‘arbdan Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh. Maydoni 20,1 ming km². Aholisi 2907 ming kishi (2024-yil 1-iyun holatiga ko‘ra). Tarkibida 14 ta tuman (Angor, Bandixon, Boysun, Denov, Jarqo‘rg‘on, Muzrabot, Oltinsoy, Sariosiyo, Termiz, Uzun, Sherobod, Sho‘rchi, Qiziriq, Qumqo‘rg‘on), 8 ta shahar (Boysun, Denov, Jarqo‘rg‘on, Termiz, Sharg‘un, Sherobod, Sho‘rchi, Qumqo‘rg‘on), 114 ta shaharcha, 865 ta qishloq aholi punktlari mavjud (2020). Markazi – Termiz shahri[2].[3]

Surxondaryo viloyati issiq iqlimga ega maskandir. Voha tabiiy geografik jixatdan tog‘ bilan o‘ralganligi bois, ushbu tog‘li hudud har bir insonni o‘ziga jalb etuvchi musaffo havosi, yam-yashil o‘rmonlari, yovvoyi tabiatning turli hildagi o‘simlik va hayvonot dunyosi, mevali bog‘u-rog‘lari, shifobaxsh buloqlari, sharqiroq soylari, mo‘jizakor g‘orlari, viqorli qoyalari, bahaybat xarsangtoshlari, salqin iqlimi, yil bo‘yi saqlanib turuvchi qor va muzliklari kabi ko‘plab tabiiy rekreatsion resurslariga boydir. Bu resurslarning ichki turizm va tashqi turistlarni o‘ziga jalb etuvchi yetakchi omil vazifasini o‘tashi mumkin.

Buyuk kelajak avlodlarini aqlan yetuk, jismonan barkamol qilib tarbiyalash muammolari barcha davlat va jamoat idoralari zimmasiga yuklatilgan. Bularning zamirila “Sog’lom avlod uchun” davlat dasturi mazmuni muhim ahamnyatga egadir.

Sog‘lom avlodni tarbiyalashga, yuksak umuminsoniy qadriyatlari asoslangan hayotiy o‘rniga ega bo‘lgan ma’naviy boy, axloqan yetuk, intellektual rivojlangan, yuqori bilimli, jismonan baquvvat, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasida 2000-yilning “Sog‘lom avlod yili” deb e’lon qilinishi davlatimiz tomonidan jamiyatni rivojlantirish maqsad qilib olingan[3].[4] Sog‘lomlashtirish maskanlarida o‘rta va katta yoshdagi kishilar orasida stol tennisi, shaxmat va shashka, milliy o‘yinlar, yengil atletika to‘garaklari, guruhlar va jamoalarni ommalashtirish ularda sog‘lomlashtirish tadbirlarining turli shakllaridan, shu jumladan, ertalabki gimnastika, yurish, sayohat va boshqa turlardan keng foydalaniladi. Bundan tashqari aholi turar-joylarida ommaviy sport ishlarini muvaffaqiyatli o’tkazishda sport inshootlari katta ahamiyat kasb etadi. Misol uchun sport maydonchalari, sog‘lomlashtirish shaharchalari, yugurish va chigal yozish yo‘lakchalari, o‘yin maydonchalaridan iborat hovli o‘yingohlari shinam bo‘lishi kerak.

Aholi yashash joylarida dam olish va sog‘lomlashtirish maskanlarining shakli quyidagicha:

1. Istirohat va ko’ngil ochish bog‘lari;

[3] https://uz.wikipedia.org/wiki/Surxondaryo_viloyati

[4] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “SOG‘LOM AVLOD” DAVLAT DASTURI TO‘G‘RISIDA” 2000-yil 15-fevraldagi 46-son ” qarori.

2. Anhor, ko'l, suv ombori va katta ariq yoqalari;
3. O'quvchilarning dam olish oromgohlari;
4. Sport oromgohlari;
5. Mahalla va uylar oldidagi bolalarning o'yin maydonlari.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10-martdagi 67-son "Bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra Respublikamizning barcha viloyatlarida sog'lomlashtirish oromgohlarining davlat tomonidan qo'llab-quvatlanishi asosida ularning moddiy-texnik bazasi yangilandi. Surxondaryo viloyatida mavjud oromgohlar 1-rasmda keltirilgan.

T/r	Oromgohlar nomi	Manzili	Yer maydoni (ga)	Bino va inshootlar (kv.m)	Balansda saqlovchi
Surxondaryo viloyati					
48.	"X. Qulniyozov" bolalar oromgohi	Uzun tumani, "Malandiyon" MFY	2,70	2 699,85	Uzun tumani xalq ta'limi bo'limi
49.	Sobiq bolalar oromgohi bino va inshootlari	Sherobod tumani, "G'urjak-2" MFY	7,10	2 011,00	Surxondaryo viloyati hokimligi
50.	"Zamondosh" bolalar oromgohi	Sariosiyo tumani, "Nilu" MFY, Nilu qishlog'i, Dunyo ko'chasi	5,70	957,57	Denov tibbiyot kolleji
51.	Bolalar oromgohi ("Chashma-Toshpo'latboy" bolalar oromgohi)	Denov tumani, A. Hidoyatov QFY, Ko'kabuloq mahallasi	7,37	2 866,00	Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi

1-rasm: O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi balansiga o'tkaziladigan bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari RO'YXATI.

Mahalliy budjetlarning qo'shimcha manbalari hisobidan bolalarning dam lishlarini tizimli tashkil etish va sog'lomlashtirish ishlarini yanada takomillashtirish maqsadida 2024-2025-yillar davomida har yili ajratiladigan mablag'lar asosida respublikada taqsimlanishini quyidagi jadvalda ko'rishimiz munkin[4].

T/r	Hududlar nomi	Mahalliy budjetlardan ajratiladigan mablag'lar *(mln so'm)*
Jami:		**105 000**
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 030
2.	Andijon viloyati	5 800

3.	Buxoro viloyati	4 445
4.	Jizzax viloyati	3 610
5.	Qashqadaryo viloyati	13 010
6.	Navoiy viloyati	8 390
7.	Namangan viloyati	4 710
8.	Samarqand viloyati	5 390
9.	Surxondaryo viloyati	5 175
10.	Sirdaryo viloyati	1 325
11.	Toshkent viloyati	12 400
12.	Farg'ona viloyati	7 450
13.	Xorazm viloyati	5 085
14.	Toshkent shahri	24 180

2-rasm: Mahalliy budjetlarning qo'shimcha manbalari hisobidan 2024-2025-yillar davomida har yili ajratiladigan mablag'lar.

Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10-martdagi 67-son qarori bilan tasdiqlangan Respublika oromgohlarida bolalarning dam olishini tashkil etish va sog'lomlashtirish konsepsiyasiga muvofiq, oromgohlar 2 turga ajratiladi:

1) statsionar oromgohlar – statsionar baza asosida qurilgan yoki vaqtinchalik ijaraga olingan obyektlarda tashkil etilib, unda bolalar smena davomida yashaydi. Mazkur oromgohlar statsionar oromgohlar joylashuvi, ta'minoti va kun tartibini tashkil etishning sanitariya normalari va qoidalari talablariga asosan faoliyat olib boradi;

2) kunduzgi oromgohlar – umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, sport, ijtimoiy xizmat ko'rsatish, sanatoriy-kurort muassasalari, klublar qoshida vaqtinchalik tashkil etilib, unda bolalar faqatgina kunduz kuni dam oldiriladi va sog'lomlashtiriladi. Ushbu oromgohlar faoliyati ta'til davrida bolalarning kunduz kuni dam olishlarini ta'minlash va sog'lomlashtirish oromgohlari joylashuvi, ta'minoti va kun tartibini tashkillashtirishning gigiyena talablariga muvofiq yuritiladi[5].

Sog'lomlashtirish muddatlari yozgi mavsumda 10 kundan, kuzgi, qishki va bahorgi mavsumda 7 kundan kam bo'lmasligi lozim.

Oromgohlar bolalarning yoshini e'tiborga olgan holda tarbiyaviy ishlarning mazmuni bo'yicha quyidagi ixtisoslashgan yo'nalishlarda tashkil etilishi mumkin:

- intellektual rivojlantirish oromgohlari;
- sport-sog'lomlashtirish oromgohlari;
- sanatoriy-sog'lomlashtirish oromgohlari;
- mehnat va dam oldirish oromgohlari;
- harbiy-sport oromgohlari;
- ekologik-biologik, o'lkashunoslik oromgohlari;
- ixtisoslashgan bolalar oromgohlari.

Surxondaryo viloyati Turizm boshqarmasi ma'lumotlari asosida viloyatda mavjud sanatoriya va oromgohlarning sonini va ularning o'rin sig'imini aniqlash jarayonida ichki va tashqi sog'lomlashtirish turizmini rivojlanayotganligini aniqlash munkin. 3-rasmga e'tibor bersak viloyat tuman va shaharlari kesimida 56 ta sog'lomlashtirish maskani mavjud bo'lib, 2035 nafar sig'imni tashkil etadi[6].

№	Hudud nomi	Joylashtirish vositalari								
		Mehmonxonalar			Oilaviy mehmon uylari			Sanatoriyalar va sog'lomlashtirish oromgohlari		
		soni	xonalar soni	o'rinlar soni	soni	xonalar soni	o'rinlar soni	soni	xonalar soni	o'rinlar soni
1	Angor tumani							1		20
2	Boysun tumani	8	106	287	45	14	144	4		150
3	Jarqo'rg'on tumani							6		130
4	Muzrabot tumani							1		50
5	Oltinsoy tumani	1	10	18	1	3	10	2		230
6	Sariosiyo tumani	3	41	97	32	74	251	1		100
7	Termiz shahar	22	682	1101	27	84	251	15		520
8	Termiz tumani	4	147	238	7	17	58	9		380
9	Uzun tumani	2	35	72						
10	Sherobod tumani	4	54	117	5	16	47	6		155
11	Sho'rchi tumani	5		130	2	6	18	4		120
12	Qiziriq tumani							2		50
13	Qumqo'rg'on tumani	1	16	30				5		130
Jami		50	1091	2090	119	214	779	56		2035

3-rasm: Surxondaryo viloyatida faoliyat olib borayotgan joylashtirish vositalari haqida ma'lumot.

MUHOKAMA. Surxondayo viloyati demografiyasida aholi soni 3 milliondan oshganligi hisobga olsak, sog'lomlashtirish maskanlariga ehtiyoj kundan-kun oshib borishiga ahamiyatlidir.

Viloyatning Sariosiyo, Denov, Uzun, Sherobod va Oltinsoy tumanlarida bolalar dam olish oromgohlari zamon talablari doirasida yo'lga qo'yilgan bo'lsada oromgohlar soni aholi soniga mutanosib emas.

Oromgohlarga qo‘shni viloyatlardan dam olish maqsadida fuqarolarni jalb etish ichki turizm salohiyatini oshirib, iqtisodiy tomonlama rivojlanashiga turtki beradi.

XULOSA. Tahlili natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatimizda bolalar soni 1991-yilga nisbatan 2024-yilda 71 foizga oshgan bo‘lsa-da, ularni sog‘lomlashtirish oromgohlari soni ikki baravarga qisqargan. So‘ngi yillarda davlatimiz tomonidan sohaga berilayotgan e’tibor o‘tgan 3 yil mobaynida faoliyat yuritmayotgan yoki samarasiz ishlayotgan bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlarining faoliyatini to‘g‘ri va samarali yo‘lga qo‘yish uchun 80 ta statsionar bolalar sog‘lomlashtirish oromgohi O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tasarrufiga o‘tkazildi. Xususan, 2023-yilning yoz mavsumida jami 196 ta statsionar bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, 158 ming nafar bolalar sog‘lomlashtirildi.

Bolalarni sog‘lomlashtirish va aholi salomatligini tiklashga ko‘maklashish jamg‘armasiga 2024-2025-yillarda respublika budjetidan jami 425 milliard so‘m yo‘naltirilgan.

Hamkorlik loyihalarini amalga oshirish uchun “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali hamkorlarga taklif etilgan holda bolalar Uzun, Sariosiyo va Sherobod tumanlarida joylashgan Oromgohlar qayta ta’mirlash ishlari amalga oshirildi.

T/r	Oromgoh nomi	Oromgoh manzili	Qurilish turi
Surxondaryo viloyati			
1.	“Janub gavhari” bolalar oromgohi	Uzun tumani, “Malandiyon” MFY	Rekonstruksiya qilish
2.	“Surxon tongi” bolalar oromgohi	Sariosiyo tumani, “Nilu” MFY	Rekonstruksiya qilish
3.	“Sherobod” bolalar oromgohi	Sherobod tumani, “G‘o‘njak-2” MFY	Rekonstruksiya qilish

4-rasm: Surxondaryo viloyatida 2024-2025-yillarda qayta ta’mirlash ishlari olib borilgan oromgohlarning jadvali.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. https://minenergy.uz/uz/news/view/3380.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Surxondaryo_viloyati.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “SOG‘LOM AVLOD” DAVLAT DASTURI TO‘G‘RISIDA” 2000-yil 15-fevraldagi 46-son ” qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 14.06.2023 yildagi PF-95-son. https://lex.uz/uz/docs/-6497954.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-maydagi PQ-199-son qaroriga 5-ILOVA.
6. Ravshanov, T. Y. (2024). Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(1).